



*hokimligi
maktabgacha va maktab ta'lifi
boshqarmasi*
*maktabgacha va
maktab ta'lifi bo'limi tasarrufidagi
—umumi o'rta ta'lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
ning*
20__-20__-o'quv yili
9- sinfiqtidorli o'quvchilar uchun
“YOSH TILSHUNOS”

**TO'GARAK
HUJJATLARI**

To‘garak a‘zolari haqida ma’lumot

№	Familiya ismi va sharifi	Tug‘ilgan sanasi	Sinfi	Manzili (to‘liq)	Ota-onasi (Ismi sharifi)	Telefon (uy yoki mobil)	Izoh
1.							
2.							
3.							
4.							
5.							
6.							
7.							
8.							
9.							
10.							
11.							
12.							
13.							
14.							

15.							
16.							
17.							
18.							
19.							
20.							
21.							
22.							
23.							
24.							
25.							
26.							
27.							
28.							
29.							
30.							

O'tkazilgan xona _____

“

_” To‘garak mashg‘ulotlar o‘tkazilish sandalari

To‘garak rahbari_

“_____” To ‘garak mashg’ulotlar o’tkazilish sanalari To ‘garak rahbari _____

To 'garak rahbari _____

**20__-20__-o‘quv yili iqtidorli o‘quvchilar uchun tuzilgan
“Yosh tilshunos” to‘garagining
ISH REJASI**

№	Yillik ish reja mavzulari	Soat	Sana	Izoh
1.	Ega ergash gapli qo‘shma gaplar			
2.	Hol ergash gapli qo‘shma gaplar			
3.	To‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gaplar			
4.	Aniqlovchi ergash gapli qo‘shma gaplar			
5.	Matn va lug‘atlar bilan ishslash			
6.	Mumtoz matn va lug‘atlar bilan ishslash			
7.	Uyushiq bo‘lakli gaplarda umumlashtiruvchi so‘z va unda ohang hamda tinish belgilari			
8.	Bog‘lovchisiz qo‘shma gap haqida ma’lumot			
9.	Qo‘shma gap turlarining ma’nodoshligi			
10.	Qo‘shma gap turlarining ma’nodoshligi			
11.	Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar			
12.	Gapning uyushiq bo‘laklari			
13.	Mumtoz matn va lug‘atlar bilan ishslash			
14.	Ko‘chirma gapli qo‘shma gap haqida ma’lumot			
15.	Ko‘chirma gapli qo‘shma gapning tuzilishi			
16.	Ko‘chirma gapli qo‘shma gaplarda tinish belgilarining qo‘llanishi			
17.	Ko‘chirma gapli qo‘shma gaplarda tinish belgilarining qo‘llanishi			
18.	Ko‘chirma va o‘zlashtirma gaplar			
19.	Ko‘chirma gapli qo‘shma gaplar			
20.	Ko‘chirma gaplarni o‘zlashtirma gapga aylantirish			
21.	Gapning ikkinchi darajali bo‘laklari yuzasidan tahlil			
22.	Nutq uslublari haqida ma’lumot			
23.	Matn va lug‘atlar bilan ishslash			
24.	Gapning ikkinchi darajali bo‘laklari yuzasidan tahlil			
25.	Ko‘chirma va o‘zlashtirma gaplar			
26.	So‘zlashuv uslubi			
27.	Publitsistik uslubi			
28.	Badiiy uslub			
29.	Ilmiy uslub			
30.	Rasmiy uslub			
31.	Insho nazariyasi haqida ma’lumot			
32.	To‘liq va to‘liqsiz gaplar			
33.	Qo‘shma gaplar bo‘yicha o‘tilganlarni takrorlash			
34.	Ko‘chirma va o‘zlashtirma gaplar, nutq uslublari bo‘yicha o‘tilganlarni takrorlash			

Sana: " " 20 -yil. Sinflar: . To‘garak rahbari: _____

Mashg‘ulot EGA ERGASH GAPLI QO‘SHMA GAPLAR

Mashg‘ulotning maqsadi:

- a) *ta’limiy*: O‘quvchilarga ega ergash gapli qo‘shma gap haqida nazariy va amaliy bilim berish.
- b) *tarbiyaviy*: O‘quvchilarga mehnat tarbiyasi berishva ularda ilm olishga bo‘lgan qiziqishini yanada kuhaytirish
- c) *rivojlantruvchi*: O‘quvchilarni tafakkur va idrokini kengaytirish, ularni mustaqil fikrlashga o‘rgatish.

Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod
<i>I-bosqich Tashkiliy qism</i>	O‘quvchilar davomati aniqlanadi. Sinf o‘quvchilarining Mashg‘ulotga tayyorgarligi tekshiriladi.	Suhbat
<i>2-bosqich O‘tilgan mavzuni takrorlash</i>	1.Uy vazifasi tahlili 2.,,Zanjir” o‘yini	Suhbat
<i>3-bosqich Yangi mavzu bayoni</i>	1.Yangi mavzu yuzasidan o‘quvchilarga murojaat etiladi 2.Yangi mavzu yuzasidan ma’lumot berish	“Aqliy hujum” Tushuntirish
<i>4-bosqich Mustahkamlash</i>	1. Mashg‘ulotlik bilan ishlash 2. „Maqolla aytish bahsi”	mustaqil ish bahs-munozara
<i>5-bosqich Mashg‘ulot yakuni va baholash</i>	O‘quvchilarning Mashg‘ulot dvomidagi faolligi hisobga olinib, reytingi e`lon qilinadi. Mashg‘ulot yakunlanadi.	baholash
<i>6-bosqich Uyga vazifa berish</i>	Uyga 147-mashq beriladi.	tushuntirish

Mashg‘ulot uslubi: an'anaviy, noan'anaviy

Mashg‘ulot jahozi: Mashg‘ulotlik, kompyuter, tarqatma materiallar, ko‘rgazmali qurollar...

Mashg‘ulot shiori: Tilga ixtiyorsiz - elga e`tiborsiz. (A. Navoiy)

Mashg‘ulot turi: yangi bilim va tushunchalar shakllantiruvchi

Foydalaniladigan adabiyotlar:

«Ona tili» **9-sinf** uchun Mashg‘ulotlik. **9-sinf** Mashg‘ulotligining elektron varianti.

I. Mashg‘ulotning borishi:

- a) salomlashish
- b) sinf tozaligi va davomatni nazorat qilish
- c) kirish suhbat, o‘quvchilarning og‘zaki nutqini o‘stirish

II. O‘tgan mavzuni so‘rash.

- a) uy vazifalari tahlili
- b) „Zanjir” o‘yini

III. Yangi mavzu

1-topshiriq. Ko‘chiradilar, Bosh va ergash gaplarni aniqlaydilar.

1. *Kimki ilm urug‘ini sepsa, ulug‘lik mevasini teradi. (Donolar bisotidan)* 2. *Shu narsa aniqki, tarixini yaxshi bilmagan odam oxir-oqibatda qul sifatida kun kechiradi. (Muhammad Ali)*

Bilib oling. Bosh gap tarkibida ega vazifasida qo‘llangan ko‘rsatish olmoshining ma’nosini izohlab keluvchi ergash gapga ega ergash gap deyiladi. Bunday ergash gap bosh gapga nisbiy so‘zlar (*kim - o’sha, nima - o’sha (yer)* kabi) yoki bosh gap kesimi tarkibida qo‘llaniluvchi -ki yuklamasi yordamida bog‘lanadi.

Gap qismlari nisbiy so‘zlar yordamida bog‘langanda, ergash gap kesimi shart mayli shaklidagi fe’llar bilan

ifodalanadi va ergash gap bosh gapdan oldin keladi.

Gap qismlari –ki yordamida bog‘langanda esa ega ergash gap bosh gapdan keyin keladi.

Eslab qoling. Ba’zan bosh gapning egasi vazifasidagi ko‘rsatish olmoshi qo‘llanmasligi mumkin, ammo uning o‘rni bilinib turadi.

144-mashq. Ko‘chirib, bosh va ergash gaplarni aniqlaydilar. Ergash gapni bosh gapga bog‘lovchi vositani izohlaydilar..

1. Shu narsa qiziqliki, uyquda ham miya o‘z faoliyatini to‘xtatmaydi. («Fan va turmush») 2. Kim izlansa, u, albatta, maqsadiga erishadi. 3. Kimki rostgo‘y, samimiy bo‘lsa, u el o‘rtasida qadr topadi. («Tafakkur gulshani») 4. Ko‘ziga nima ko‘rinsa, shu uni qiziqtira boshladi. (Oybek) 5. Kim erta bahordan dalaga chiqib peshona teri to‘ksa, u kuzda mehnatining rohatini ko‘radi.

145-mashq. Ega ergash gapli qo‘shma gaplarni topib ko‘chiradilar,e rgash gapni bosh gapga bog‘lovchi vositalarni aniqlaydilar.

Yomg‘irdan keyin osmonda paydo bo‘ladigan kamalak jahondagi jamiki ranglarni yettita ipga tortib turganga o‘xshaydi. O‘sha yetti ipni kim yoyib yuborsa, u olamni anvoyi gullarga burkaydiganday.

Odam bolasi borki, u shu ranglardan birini o‘ziniki qilib oladi, butun taqdirini, tarjimai holini, orzu-umidlarini va, nihoyat, olamni shu rang orqali ko‘radi. Shu narsa ayonki, tabiat ham shu rang ta’siriga tushib qoladi.

Masalan, men gunafsha rangni yaxshi ko‘raman. Shu rangga ko‘zim tushishi bilan butun umrim ko‘z oldimga keladi. Yayrab ketaman. Bunga sabab, yoshligimda gunafsha rang qog‘ozdan varrak yasab uchirardim. Shunisi qiziqarli ediki, ko‘mko‘k bahor osmoni bolalar uchirgan anvoyi rang varraklarga to‘lib ketardi. Ular orasida mening gunafsha rang varragim alohida ajralib turardi. (Said Ahmad)

146-mashq:, Topqirlar va zukkolar”bahsi

147-mashq. Uyga vazifa. Gaplarni ko‘chiring. Bosh gapning egasi vazifasidagi ko‘rsatish olmoshini aniqlang.

1. Anvarga shunisi qiziq tuyuldi, bu yerda ... hamma daraxtlar bir chiziq ustida saf turadi. (Abdulla Qodiriy) 2. Bu savollardan ma’lum bo‘ldiki, aybnoma uydirma emas. (Abdulla Qahhor) 3. Bir narsa aniqki, ahvol yomon. (Asqad Muxtor) 4. Kimki taqdirga tan bersa, u hayot to‘lqinida g‘arq bo‘lib ketadi. (O. Yoqubov) 5. Kimki biroyga yomonlik qilsa, u shu dunyoning o‘zidayoq jazosini ko‘radi. (Hadis)

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash: Og‘zaki savol-javob.

V. Uyga vazifa:147-mashq

VI. Mashg‘ulot yakuni. Baholarni tahlil qilish.

Sana: " " 20 -yil. Sinflar: . To‘garak rahbari: _____

Mashg‘ulot HOL ERGASH GAPLI QO‘SHMA GAPLAR

Mashg‘ulotning maqsadi:

a) ta’limiy: O‘quvchilarga hol ergash gapli qo‘shma gaplar va ularda tinish belgilarining qo‘llanishi haqida bilim berish

b) tarbiyaviy: O‘quvchilarga axloqiy tarbiya berish

c) rivojlantiruvchi: O‘quvchilarda til hodisalariga oid muammolarni mustaqil hal qilish ko‘nikmasini rivojlantirish.

Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod
<i>I-bosqich</i> <i>Tashkiliy qism</i>	O‘quvchilar davomati aniqlanadi. Sinf o‘quvchilarining Mashg‘ulotga tayyorgarligi tekshiriladi.	Suhbat
<i>2-bosqich</i> <i>O‘tilgan mavzuni takrorlash</i>	1.Uy vazifasi tahlili 2.Yoddan yozuv diktanti(qo‘shma gaplar yuzasidan)	Suhbat
<i>3-bosqich</i> <i>Yangi mavzu bayoni</i>	1.Yangi mavzu yuzasidan o‘quvchilarga murojaaat etiladi 2.Yangi mavzu yuzasidan ma’lumot berish	“Aqliy hujum” Tushuntirish
<i>4-bosqich</i> <i>Mustahkamlash</i>	1. Mashg‘ulotlik bilan ishlash. 2. „Kim yaxshi o‘zlashtiradi”o‘yini	mustaqil ish bahs-munozara
<i>5-bosqich</i> <i>Mashg‘ulot yakuni va baholash</i>	O‘quvchilarning Mashg‘ulot dvomidagi faolligi hisobga olinib, reytingi e‘lon qilinadi. Mashg‘ulot yakunlanadi.	baholash
<i>6-bosqich</i> <i>Uyga vazifa berish</i>	Uyga 152-mashq beriladi.	tushuntirish

Mashg‘ulot uslubi: an’naviy, noan’naviy

Mashg‘ulot jihizi: Mashg‘ulotlik, kompyuter, tarqatma materiallar, ko‘rgazmali qurollar...

Mashg‘ulot shiori: *Tilga ixtiyorsiz - elga e`tiborsiz. (A. Navoiy)*

Mashg‘ulot turi: yangi bilimva tushunchalar hosil qiluvchi

Foydalaniladigan adabiyotlar:

«Ona tili» **9-sinf** uchun Mashg‘ulotlik. **9-sinf** Mashg‘ulotligining elektron varianti.

I. Mashg‘ulotning borishi:

- a)** salomlashish
- b)** sinf tozaligi va davomatni nazorat qilish
- c)** kirish suhbat, o‘quvchilarning og‘zaki nutqini o‘stirish

II. O‘tgan mavzuni so‘rash.

- a)** Uy vazifasi tahlili
- b)** Yoddan yozuv diktanti

III. Yangi mavzu

1-topshiriq. Berilgan qo‘shma gaplar tarkibidagi bosh va ergash gaplarni aniqlaydilar.

1. *Kechqurun osh suzsak, bir nasiba kam. (G‘afur G‘ulom)* 2. *Yana ikki ko‘z ham berdim, yov kelganda, ko‘rsin deb. (Hamid Olimjon)*

Bilib oling. Bosh gap tarkibida hol vazifasida qo‘llangan ko‘rsatish olmoshining ma’nosini izohlab keluvchi yoki bosh gap orqali ifodalangan mazmunning sababi, maqsadi, sharti, payti, holati, miqdor-darajasi kabilarni bildirgan ergash gaplarga hol

ergash gap deyiladi. Hol ergash gaplar bosh gapga nisbiy so‘zlar, shart mayli shakllari; sabab, maqsad, shart bog‘lovchilar; deb so‘zi yordamida bog‘lanadi. Hol ergash gaplar holning ma’no turlariga muvofiq o‘z ichida payt, o‘rin, sabab, maqsad, shart, miqdor-daraja ergash gaplar singari bir necha turlarga bo‘linadi.

148-mashq. Ko‘chiradilar, bosh va ergash gaplarni aniqlaydilar, ergash gapni bosh gapga qanday vosita bilan bog‘lanayotganini va uning bosh gap kesimining qanday belgisini bildirayotganini aytadilar.

1. Oqsoqol qayerda bo‘lsa, o‘sha joyda ish bir tartibda borardi. (*O’.Hoshimov*) 2. Dutor chalib o‘tirsam, tori uzilib ketdi. (*Qo‘shiq*) 3. Oysha opa xatni oxirigacha o‘qiy olmadi, chunki hovlining eshigini kimdir taqillata boshladi. (*Sh.Xolmirzayev*) 4. Sizni qo‘rqib ketmasin deb, kechqurun bezovta qilmadik. (*Nazir Safarov*) 5. Boshingga tashvish tushmasa, qaytib kelmasding. (*Said Ahmad*) 6. Hali Onaxonning bilmaganlari shu qadar ko‘p ediki, so‘rab oxiriga yetolmasday ko‘rindi. (*Asqad Muxtor*)

149-mashq. O‘qing, hol ergash gapli qo‘shma gaplarni topib ko‘chiradilar,, ularning ma’no turlarini aniqlaydilar.

G‘afur G‘ulom etagini silkitsa, kulgi to‘kilardi. U kirgan xonadonda bir hovli kulgi qolardi. U har bir xonadonning ko‘pdan kutgan aziz mehmoni edi. Qayerga borsa, o‘sha yerda atrofini yosh-u qari o‘rab olardi.

Donolar davrasida dono edi. Bedilni, Hofizni, Jomiyni sevib o‘qirdi. Ozarbayjon, tojik, turkman, uyg‘ur, qozoq, tatar, qirg‘iz tillarida bemalol gaplasha olardi. U hozirjavob odam edi. Dushanbadagi bir davrada aytgan gaplarini haligacha qoyil qolib eslayman. -Siz meni o‘zbek, Tursunzodani tojik deyapsizlar. Tojikning oti Tursun bo‘lsa, o‘zbekning oti G‘ulom bo‘lsa, uning tojikligi-yu, mening o‘zbekligim qayoqqa borardi? Yo‘q, birodarlar, biz hammamiz qardoshmiz. Milliy ayirmachilikni xayolimizga ham keltirmaymiz. Qarang, hatto ismlarimiz ham ayqash-chuyqash bo‘lib ketgan-a! (*Said Ahmad*)

150-mashq. Ko‘chirib, bosh va ergash gaplarni aniqlaydilar. Ergash gapning qanday so‘roqqa javob bo‘layotgani va bosh gap kesimining qanday belgisini bildirayotganini aytadilar. Ergash gapning ma’no turini aniqlaydilar..

1. Qayerda ahillik bo‘lsa, o‘sha yerda qut-baraka bo‘ladi. (« *Tafakkur gulshani*) 2. O‘simlikni qancha parvarish qilsang, shuncha mo‘l hosil olasan. 3. Soy qanchalik tez oqsa, u shunchalik sayoz bo‘ladi. (« *Tafakkur gulshani* ») 4. Odamlar ishdan qolmasin deb, marosimni saat besh yarimga tayin qilganmiz. (*Said Ahmad*) 5. Sizni suvdan o‘tkazib qo‘ymasam, menga bergen noningiz harom bo‘lg‘ay. (*P.Qodirov*)

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:,,Kim yaxshi o‘zlashtiradi”o‘yini

V. Uyga vazifa :152-mashq

VI. Mashg‘ulot yakuni. Baholarni tahlil qilish.

Sana: “_” _____ 20__-yil. Sinflar: _____. To‘garak rahbari: _____

Mashg‘ulot TO‘LDIRUVCHI ERGASH GAPLI QO‘SHMA GAPLAR

Mashg‘ulotning maqsadi:

a) *ta’limiy*: O‘quvchilarga to‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gaplar haqida bilim berish

b) *tarbiyaviy*: O‘quvchilarga mehnat tarbiyasini berish

c) *rivojlantiruvchi*: O‘quvchilarda grammatik tahlildan nazariy xulosalar chiqarish ko‘nikmasini shakllantirish

Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod
<i>I-bosqich</i> <i>Tashkiliy qism</i>	O‘quvchilar davomati aniqlanadi. Sinf o‘quvchilarining Mashg‘ulotga tayyorgarligi tekshiriladi.	Suhbat
<i>2-bosqich</i> <i>O‘tilgan mavzuni takrorlash</i>	1.Uy vazifasi tahlili 2.,,Savollar sizdan,javoblar bizdan”o‘yini	Suhbat
<i>3-bosqich</i> <i>Yangi mavzu bayoni</i>	1.Yangi mavzu yuzasidan o‘quvchilarga murojaat etiladi 2.Yangi mavzu yuzasidan ma’lumot berish	“Aqliy hujum” Tushuntirish
<i>4-bosqich</i> <i>Mustahkamlash</i>	1. Mashg‘ulotlik bilan ishlash. 2. Test bilan ishlash	mustaqil ish bahs-munozara
<i>5-bosqich</i> <i>Mashg‘ulot yakuni va baholash</i>	O‘quvchilarning Mashg‘ulot dvomidagi faolligi hisobga olinib, reytingi e‘lon qilinadi. Mashg‘ulot yakunlanadi.	baholash
<i>6-bosqich</i> <i>Uyga vazifa berish</i>	Uyga 157-mashq beriladi.	tushuntirish

Mashg‘ulot uslubi: an’anaviy, noan’anaviy

Mashg‘ulot jihizi: Mashg‘ulotlik, kompyuter, tarqatma materiallar, ko‘rgazmali qurollar...

Mashg‘ulot shiori: *Tilga ixtiyorsiz - elga e`tiborsiz. (A. Navoiy)*

Mashg‘ulot turi: yangi bilim va ko‘nikmalar hosil qiluvchi

Foydalaniladigan adabiyotlar:

«Ona tili» **9-sinf** uchun Mashg‘ulotlik. **9-sinf** Mashg‘ulotligining elektron varianti.

I. Mashg‘ulotning borishi:

a) salomlashish b) sind tozaligi va davomatni nazorat qilish

c) kirish suhbat, o‘quvchilarning og‘zaki nutqini o‘stirish

II. O‘tgan mavzuni so‘rash.

a) uy vazifalari tahlili

b) „Savollar sizdan,javoblar bizdan”o‘yini

III. Yangi mavzu

1-topshiriq. Berilgan gaplarni ko‘chiradilar, bosh va ergash gaplarni aniqlaydilar..

1. *Shu narsani esdan chiqarmangki, odam odam bilan uchrashadi, tog‘ tog‘ bilan uchrashmaydi. (Oybek)* 2. *Kimki bo ‘lsa dilozor, undan el-u yurt bezor. (Maqol)*

Bilib oling. Bosh gap tarkibida to‘ldiruvchi vazifasida qo‘llangan ko‘rsatish olmoshining ma’nosini izohlab keluvchi ergash gaplarga to‘ldiruvchi ergash gaplar deyiladi. To‘ldiruvchi ergash gaplar bosh gapga nisbiy so‘zlar yoki bosh gap kesimi tarkibida qo‘llaniluvchi -ki yuklamasi yordamida bog‘lanadi. Gap qismlari nisbiy so‘zlar yordamida bog‘langanda, ergash gap kesimi shart mayli shaklidagi fe’llar bilan ifodalanadi va to‘ldiruvchi ergash gap bosh gapdan oldin keladi. Gap qismlari -ki

yordamida bog‘langanda esa to‘ldiruvchi ergash gap bosh gapdan keyin keladi.

Eslab qoling. Ba’zan bosh gapning to‘ldiruvchisi vazifasidagi ko‘rsatish olmoshi qo‘llanmasligi mumkin, ammo uning o‘rni bilinib turadi.

153-mashq Ko‘chirib, qo‘shma gaplar tarkibidagi ergash gapni bosh gapga bog‘lovchi vositalarni belgilaydilar. Bosh gap tarkibidagi ko‘rsatish olmoshining qanday gap bo‘lagi vazifasida kelayotganiga diqqat qiladilar.

1.Ahmadjon faqat shuni biladiki, dushman bu tepalikni haddan tashqari qattiq o‘qqa tutdi. (*Abdulla Qahhor*) 2. Bu o‘rinda shuni aytish kerakki, qalandarovlarni o‘sha davr hayoti yaratma boshlagan edi. (*M.Qo‘shtonov*) 3. Qalbingiz nimani buyursa, siz menga shuni buyuring. (*P. Qodirov*) 4. Shuni bilib qo‘yginki, sen suyangan tog‘ning tagi nurab qolgan. (*Said Ahmad*)

154-mashq Gaplarni ko‘chirib, to‘ldiruvchi ergash gaplarni topib, ulaming bosh gapga bog‘lanishini izohlaydilar.

1. Bilingki, jim turib salomat bo‘lish gapirib malomatga qolishdan afzal. 2. Shuni anglamoq kerakki, ota-onu uchun farzanddan ko‘ra yaqinroq kimsa yo‘q. 3. Shundan ehtiyot bo‘lingki, birovning ota- onasini haqorat qilgan odam o‘zining ota-onasini ham haqoratlagan bo‘ladi. 4. Shuni hamisha yodingizda saqlangki, birovga yolg‘on gapirish eng katta gunohdir. 5. Shuni unutmangki, do‘stlar bilan suhabat qurmoq gullar orasida sayr qilmoqdan xushdir. («Aql aqldan quvvat olar» kitobidan)

155-mashq: Gap qoliplari asosida gap tuzadilar.Mustaqil ish

156-mashq:guruuhlararo musobaqa

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash: Og‘zaki savol-javob.

V. Uyga vazifa :157-mashq

VI. Mashg‘ulot yakuni. Baholarni tahlil qilish.

Maktab MMIBDO‘ _____ sana _____ 20 ____ yil

veb-saytimiz: Zokirjon.com
Hujjat Word variantda beriladi.

Zokirjon Admin bilan

90-530-00-68 nomeraga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz yoki nza4567 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi. Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi


**Ona tili fanidan 9-sinf iqtidorli o‘quvchilarga
34 soatlari to‘garakni to‘liq holda olish uchun
telegramdan yozing.**

Narxi: 20 ming so‘m

Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

**To‘lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#
Plastik egasi Nabiyev Zokirjon**



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng
yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga
joylamang.
Kanal va gruppalarga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**